OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITILISH MUAMMOLARI

Yusupova Shoxista Alimjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti, “Tarix va san’atshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yodgorova Anora Abduvali qizi
7-24 Tasviriy san’at mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda ta’lim sohasidagi talablar, oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at yo‘nalishlaridagi mashg‘ulotlarining o‘qitislish jarayonida yuzaga keladigan asosiy

qiyinchiliklar hamda, muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumot berilgan. Tasviriy san'at inson hayotigadi muhum o'rni. Talabalarning tasviriy san'at sohasidagi qiziqishi, pedagogik nazariya va amaliyotda kuzatilgan kamchiliklar, shuningdek, o'qituvchilarning ushbu fanlar bo'yicha malakasini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, pedagogika, maktab, ta'lim, pedagogik texnologiya, professional, integratsiyalash, didaktika, metodika, ijodkor, estetik, multimedia, raqobotbardosh, qobiliyat.

Ta'lim sohasida katta islohatlar olib borilishi natijasida Oliy o'quv yurtlarida o'qitish tizimi tubdan o'zgardi, bularning natijasida moddiy texnik bazalari mustahkamlanib borilmoqda. Demak, raqobotbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunda ustozlar oldida turgan muhum vazifalardan biri bo'lib hisoblanib kelmoqda. Jamiyatning yuksalib rivojlanishi, bilimli insonlarning ilmiy salohiyatiga bog'liqligi hech birimizga sir emas. Shu sababli, eng avvalo ijodkor qobiliyatli talabalarni aniqlab olish va bor qobiliyatini yanada rivojlantirish zarur bo'ladi.

Yurtimizda salohiyatli kadrlar tayyorlash va uni ishlab chiqilish ta'lim va tarbiya jarayonida muhim hisoblanadi, chunki o'qituvchi tayyorlash hamda ularni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib rivojlantirish yuqori malakaga ega pedagoglarni tayyorlash bilan birga kelajak avlodga ham yuqori darajada ta'lim- tarbiya berish uchun asosiy vazifa bo'lib hizmat qiladi. Davlatimiz kelajagi mana shunday yetishib kelayotgan yosh avlodga, yosh pedagog kadrlarga bog'liqdir. Bugungi kunda berayotgan ta'lim –tarbiyamiz ertaga o'z natijasini ko'rsatmog'i zarur. Shu sababdan, oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri bu sifatli ta'limni tashkil etish va ta'lim tizimini tubdan isloh qilishdan iboratdir.

Ma'lumki, san'at, madaniyat sohalarini rivojlantirish uchun Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilinib kelinmoqda, bulardan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2020 yildagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-4688-son, 02.02.2022 yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son hamda 27.06.2023 yildagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini misol keltirib o'tishimiz mumkin.

Yuqoridagi qarorlar ijrosini ta'minlashda albatta soha vakillari bilan bir qatorda Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidan tortib to, oliy ta'lim tizimida san'at ta'limi sohasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-pedagoglarga muhum va ishonchli mas'uliyatni yuklaydi. Chunki, bu faoliyatda barcha ta'lim tizimlari bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir. Misol uchun umumta'lim maktablari professional ta'lim, oliy ta'lim va boshlang'ich bilim beruvchilar uchun ham asosiy tayanch ta'lim maskani bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda esa san'at ta'limi oliy o'quv yurtlaridagi tasviriy san'at yo'nalishlari o'qitish tizimida, yuzaga kelayotgan muammolarning dolzarbligi, tayyorlanilayotgan bo'lajak mutaxassislarning ijodiy salohiyati va malakasini shakllantirishga bevosita ta'sir qilmoqda. Xususan, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning tasviriy san'at sohasidagi qiziqishi va bilimlarining tobora pasayib borayotganligi dolzarb muammolardan biri sifatida ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida bu fanga bo'lgan e'tibor etarli darajada berilmaganligidandir.

Bu fanga kelsak, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, tassavurlarini kengaytirish, estetik hissiyotlarini rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda muhum ahamiyatga egadir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti tarbiyaning tarkibiy qismlaridan bo'lgan mehnat tarbiyasini amalga oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki, bu mashg'ulotlarida o'quvchilar amaliy ishlar ijodkorlik bilan shug'ullanadilar, turli o'quv materiallaridan, turli hil asbob-uskunalardan foydalanishni o'rganadilar. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kelajakdagi kamolotiga yordam beradigan tarbiyachi ham sanaladi.

Ammo, kelajak avlodga yuqoridagi hislatlarni shakllantirish uchun imkoniyatlar ko'pchilik o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida tasviriy san'at bilan shug'ullanishlari uchun ta'lim

muassasalarida yetarlicha imkoniyat yo‘qligi bizning og‘riqli nuqtalarimiz hisoblanadi. Bundan tashqari, ko‘pchilik o‘qituvchilarning tasviriy san’at sohasida yetarli malakaga ega emasligi asosiy muammolardan biridir. Bu esa o‘quvchilarning ushbu sohada yetarli darajada ta’lim olmasliklariga olib keladi. Ko‘pchilik o‘quvchilar tasviriy san’atni o‘rganishning amaliy foydasini ko‘rmaydilar. Ular bu o‘rgatilayotgan mavzularning kelajakdagi kasbiga hech qanday aloqasi yoki foydasi yo‘q deb hisoblashadi. Natijada o‘quvchilarning bu fanga bo‘lgan talablar o‘rganishga yetarlicha vaqt va e’tibor qaratmasligiga olib keladi.

Bugungi kunda tasviriy san’atni o‘qitish bo‘yicha qilinayotgan islohotlar va yangiliklar muhim bo‘lsa-da, biroq ayrim jarayonlarda turli muammolar ham mavjud. Bu muammolardan ba’zilari quyidagilardan iboratdir:

1. Pedagogik texnologiyalar- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy
etishda resurslar va malaka yetishmasligi;

2. Didaktika va metodika- O‘qitish metodlarini yangilash jarayonida, an’anaviy yondashuvlardan zamonaviy metodlarga o‘tilishi;

3. O‘quv dasturlari va darsliklar- Ishlab chiqilgan barcha yangilangan o‘quv dastur va darsliklarni o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida keng tarqatishda muammolar yuzaga kelishi;

4. O‘qituvchi malakasi: Yangi pedagogik texnologiya va metodikalarni qo‘llashga tayyorligi va o‘qituvchilarning malakasini oshirishda muammolar.

Bu muammolarni hal etish uchun tegishli strategiyalar va resurslarni ishlab
chiqish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, moliyaviy va moddiy-texnik bazani mustahkamlash zarur bo‘ladi. Bu muammolarni hal qilish uchun esa maktablarda san’at darslarini qisqartirish emas, balki yanada yaxshilash va tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchilarning saviyasi hamda malakasini oshirish kerak.

Oliy ta’limdagi talabalar tanlagan yo‘nalishining afzalliklarini ko‘rishlari uchun mutaxassislik fanlariga chuqurroq e’tibor berish va ko‘proq noan’anaviy amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishlari kerak bo‘ladi. Yangi texnologiyalar taraqqiyoti turli sohalar qatori san’at sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, tasviriy san’atda ham yangi vositalar va texnikalar paydo bo‘ldi. Talabalarga zamonaviy texnologiyalar va o‘qitish usullaridan foydalanish imkoniyatini berish orqali yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarga moslashishi kerak bo‘lib qoldi. Ta’lim jarayoniga texnologik integratsiyalash orqali turli xil ta’lim dasturlarini kiritish mumkin, bu esa mashg‘ulotlarda multimedia va fanlararo yondashuvni ta’minlashga yordam beradi. Bunday jarayon ta’lim oluvchilarning ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishiga yordam beradi. [1.136] Tasviriy san’at jamiyatning madaniy ongini va estetik idrokini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi bois ushbu sohani rivojlantirish natijasida milliy madaniy merosni saqlash va uni boyitish, jahon iqtisodiyoti va madaniy almashinuvlar sharoitida oliy ta’lim bitiruvchilari jahon miqyosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun bu sohasida raqobatbardosh mustaxkam ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishlari muhumdir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish, professor-o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish, zarur resurslar va infratuzilma bilan ta’minlash, tizim bilan bog‘liq tashkilotlar va ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur.

San’atda madaniyat sohasi muhum o‘rin tutib kelmoqda. Aynan, madaniyat shaxs va jamiyat o‘rasida bo‘lib, insonning shaxsiyati bilan ijtimoiy tamoyillar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatadi. Madaniyat orqali bolalar ijtimoiy hayot bosqichiga moslashish jarayonlari tabiiy ravishda o‘tiladi. Shu sababdan, san’atga mehrli tarbiyalash uchun vaqt, sabr-toqat, iroda, matonat, mehnat, g‘ayrat har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga doimiy e’tibor qaratish talab etiladi. Shuningdek, “Tasviriy san’at” fani o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini, fikrlash tafakkurini va estetik hissiyotlarini o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu fan, maktabda o‘qitiladigan boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda, o‘quvchilarning umumiy bilim darajasini oshirishga yordam beradi.

Xulosada esa, bugungi kun o‘zgaruvchan jahon mehnat bozori talablariga moslashish uchun ta’lim dasturlarini, jumladan raqamli texnologiyalar ko‘nikmalarini, multimedia dizayni, vizual

marketing san'ati (va boshqalar) kabi zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqilishini taqozo etilmoqda.

Ta'lim muassasalari talabalar tajribasini boyitish va ijodkorlikning yangi darajalarini yaratish uchun qo'shimcha yangi va virtual texnologiyalarni o'qitishga

integratsiyalashlari mumkin. Ushbu soha bo'yicha jahondagi taniqli yoki tajribali oliy ta'lim muassasasalari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarni mustahkamlashi, amaliyot va stajirovkalarni ko'paytirishi, professional seminarlar orqali talabalarga haqiqiy tajriba uchun ko'proq imkoniyatlarni taqdim etilishi ta'lim sifatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Mashg'ulotlar jarayonida esa talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishi, o'quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish va sharhlash, mustaqil ishlash va izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatni kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bu kabi o'zgarishlar tasviriy san'at bo'yicha ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, talabalarni sohadagi zamonaviy talablarga va imkoniyatlarga yanada yaxshiroq tayyorlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent – "ILM ZIYO" – 2013y[1.136]

2. N.N.Azizxo'jaeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.:-2006y.

3. S.F. Abdurasulov Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T.: "Ili-ziyo" 2011y.

4. N.Yu.Yusupova, M.U.Xamidova, N.K.Abidova, M.Yu.Pardayeva Tasviriy san'at va qo'l mehnatga o'qitish maxsus metodikasi. T.: 2018y.

5. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O'RNI". WORLD OF SCIENCE 6.11 (2023): 87-90.

6. Yakubova, Nafisa Odiljanovna. "THE ROLE AND IMPORTANCE OF GRAPHIC MODES IN STUDENTS-INCREASING THE IMAGINATION OF CUTTING." Актуальные научные исследования в современном мире 4-2 (2021): 268-272.

7. Muratov, X. X., & Yusupova, S. A. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars mashg'ulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash. Academic research in educational sciences, (3), 202-208.

8. Юсупова Ш. TASVIRIY SAN'AT TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.